

 [Скачать страницу в PDF \(63 Kb\)](#)  [Версия](#)  [Скачать страницу в doc \(63 KB\)](#)

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi "2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida"gi 9-son qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Xarakterlar strategiyasini "Halq bilan muloqat va inson manfaatli yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda "Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to`g`risida"gi 2017 yil 31 maydagi PQ-3022-son qarori hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi 9-son Qarorining ijrosini ta`minlash maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi "2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida"gi 9-son qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) Quyidagilarni o`z ichiga olgan 2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi (keyingi o`rinlarda Dastur deb ataladi):

2018-2022 yillarda davlat teatrlari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo`yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq:

2018-2022 yillarda davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash hamda jihozlashning manzilli dasturi 2-ilovaga muvofiq:

Xorazm viloyati musiqali drama teatrlarini kompleks rivojlantirish bo`yicha chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

b) 2018-2022 yillarda respublika teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar dasturi bajarilishini muvofiqlashtiruvchi komissiya (keyingi o`rinlarda Komissiya deb ataladi) tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

v) Komissiya (A.Ramatov):

Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirishi yuzasidan mas`ul bo`lgan vazirlik, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirishni, belgilangan tadbirlarning to`liq va sifatli bajarilishi yuzasidan monitoring va nazoratni amalga oshirilishi;

davlat teatrlarining ishlab chiqiladigan yangi kontseptsiyalari tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish, turistlarga xizmat ko`rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, dizayn va landshaft echimlariga e`tibor qaratgan holda xar bir teatr binosi eskiz-loyhasining teatrning yo`nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi ta`minlanishi;

2019 yilning 1 dekabriga qadar Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida qo`g`irchoq teatrlarini tashkil qilish va ularning faoliyati bo`yicha takliflar ishlab chiqilishi.

Komissiyaga, zaruriy hollarda, O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan takliflariga asosan 2018-2022 yillarda davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash hamda jihozlashning manzilli dasturiga o`zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi.

g) O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi uch oy muddatda soxaga oid malakali mutaxassislardan iborat ekspert guruhlarini shakllantirish hamda bugungi zamon talabi va xorijiy ilg`or tajribalarni inobatga olib, xar bir davlat teatrining individual kontseptsiyalarini ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi.

d) Dastur doirasida davlat teatrlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash bo`yicha:

buyurtmachi etib - O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi "Ob`ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va joriy ta`mirlash bo`yicha buyurtmachi xizmati" davlat muassasasi belgilanganligi;

bosh loyixachi va bosh pudrat tashkilotlari belgilangan tartibda o`tkaziladigan tanlov (tender) savdolari natijalari asosida belgilanganligi.

Bunda, loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish jarayonida teatrlarda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida pandus, maxsus xojatxonalar va tomosha zalidan joy ajratilishi nazarda tutilganligi.

e) Quyidagilar Dasturni moliyalashtirish manbalari etib belgilanishi:

davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari bo'yicha - O'zbekiston Respublikasining har yilgi Investitsiya dasturi doirasida markazlashgan mablag'lari;

davlat teatrlari binolarini mukammal ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha - O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar;

jismoniy va yuridik shaxslarining homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

i) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi Madaniyat vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga asosan O'zbekiston Respublikasining 2018 yil va kelgusi yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Investitsiya dasturlari parametrlarini shakllantirishda mazkur qarorda belgilangan davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash ishlari uchun zarur mablag'larni nazarda tutilishi.

Belgilab qo'yilsinki, 2018 yilda davlat teatrlari binolarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va mukammal ta'mirlash ishlarini boshlashga hamda 2019 yildan boshlab qurish va rekonstruksiya qilish uchun zarur mablag'lar ajratilishi.

k) O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi Madaniyat vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shaxri hokimliklari bilan birgalikda Dasturni amalga oshirish uchun imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlarni jalb etish bo'yicha xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy donorlar bilan tizimli ishlar olib borilishi.

l) Shunday tartib o'rnatilganligi, unga binoan 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan xar bir davlat teatrida quyidagilarni nazarda tutuvchi sahna asarlari yaratish uchun davlat buyurtmasi berilishi:

yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi spektakllari;

aholi, oila munosabatlari, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik kabi g'oyalar asosida tarbiyalovchi badiiy yuksak sahna asarlari;

yurtimizning buyuk siymolari, halqimizning boy tarixi, vatanimiz mustaqilligiga ulkan hissa qo'shgan namoyondalar hayoti va ijodi xar tomonlama, chuqur aks ettirilgan saxna asarlari;

davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi hamda yoshlarning ma'naviy dunyosini mustaxkamlaydigan, kelajakka ishonchini oshiradigan, ibrat bo'ladigan zamon qaxromoni obrazini ifodalovchi spektakllari.

m) Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari hokimliklari yangidan quriladigan davlat teatri binolari uchun:

belgilangan tartibda zarur er maydonlari ajratilishini;

tashqi muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurilishining mahalliy byudjet mablag'lari va ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini ta'minlanishi.

n) O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlarining davlat ekspertizasidan o'tkazilishini belgilangan tartibda ta'minlasin hamda bajarilayotgan qurilish-montaj ishlarining sifati, shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini o'rnatilishi.

o) Davlat teatrlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilanishi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va mahalliy byudjet mablag'lari;

davlat teatrlarining spektakl, tomoshalar namoyishi, gastrol faoliyatidan tushadigan mablag'lari;

halqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlar, donor mamlakatlar va tashkilotlarning grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik hayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

p) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda, davlat teatrlari va kontsert-tomosha muassasalari faoliyatini samaradorligini oshirish evaziga 2018-2022 yillarda ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlarning byudjetdan tashqari tushadigan tushumlari hisobiga koplanadigan ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish bo'yicha reja-jadvalini ishlab chiqilishi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi.

Bunda byudjet mablag'lari davlat teatrlarining o'z daromadlari tushumiga nisbatan proporsional ravishda ajratilishi nazarda tutilishi.

r) Xorazm viloyati hokimligi tijorat banklar bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2017 yil 23 oktyabrdagi PQ-3350-son qarori doirasida Urganch shahrida qurilayotgan arzon ko'p xonadonli uylardagi xonadonlardan Xorazm viloyati musiqali drama teatri xodimlariga uzoq muddatli imtiyozli ipoteka krediti asosida ajratilishini ta'minlanishi;

Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 12 oktyabrda 1727-son bilan ro`yxatga olingan Aholining keng katlamli, shu jumladan, yosh oilalar uchun uy-joy qurilishini va rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish va kreditlar tartibi to`g`risidagi nizom asosida Xorazm viloyati musiqali drama teatriga yaqin hududda qurilayotgan ko`p xonadonli uylardagi xonadonlardan (3 ta qavat), ular bilan bog`liq xarajatlar homiylik hayriyalari hisobidan qoplanishini inobatga olgan holda, xizmat uylari sifatida foydalanish uchun Xorazm viloyati musiqali drama teatriga operativ boshqaruv huquqi bilan berilishini ta`minlanishi.

s) O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari har chorak yakuni bo`yicha Dasturdagi tadbirlarning o`z vaqtida va sifatli bajarilishi hamda amalga oshirilgan ishlar to`g`risida Komissiyaga axborot kiritib borilishi.

t) O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi:

O`zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat teatrlari va kontsert-tomosh muassasalarida xodimlarning ish vaqti hisobini, chiptalar hisobi va hisobotini yuritishga mo`ljallangan elektron dasturi ta`minotini hamda internet tarmog`i orqali chiptalarni elektron sotish tizimini joriy etish bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilishi;

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan birgalikda O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida madaniyat va san`at sohasi pedagog, rahbar, ijodiy hamda ovoz va yoritish bo`yicha to`lov asosida maxsus o`quv kurslari tashkil etilishi.

u) O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat teatrlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish bo`yicha takliflarni ikki oy muddatda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish topshirilganligi ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Madaniyat vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlar va an`analarni aks ettiruvchi spektakllar, aholi, oila munosabatlari, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik kabi g`oyalari asosida tarbiyalovchi badiiy yuksak sahna asarlari, yurtimizning buyuk siymolari, halqimizning boy tarixi, vatanimiz mustaqilligiga ulkan hissa qo`shgan namoyondalar hayoti va ijodi xar tomonlama, chuqur aks ettirilgan saxna asarlari, davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi hamda yoshlarning ma`naviy dunyosini mustaxkamlaydigan, kelajakka ishonchini oshiradigan, ibrat bo`ladigan zamon qaxromoni obrazini ifodalovchi sahna asarlari yaratish va aholiga namoyish etish yuzasidan takliflar kiritilsin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, shahar va tuman hokimliklari har chorak yakuni bo`yicha Dasturdagi tadbirlarning o`z vaqtida va sifatli bajarilishi hamda amalga oshirilgan ishlar to`g`risida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga axborot kiritib borsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.Jumanov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Просмотров:

Поиск

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)